



O'ZBEKISTON XALQARO
ISLOM AKADEMIYASI

O'ZBEK TILI: KECHA VA BUGUNI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MATERIALLARI

2021-yil,
27-oktabr
Toshkent

O'ZBEK TILI VA MUMTOZ SHARQ ADABIYOTI KAFEDRASI



O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

MUMTOZ SHARQ FILOLOGIYASI FAKULTETI

O‘ZBEK TILI VA MUMTOZ SHARQ ADABIYOTI KAFEDRASI

O‘ZBEK TILI: KECHA VA BUGUNI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

Toshkent -2021

УДК: 4. 81
С - 12

Ushbu to'plam O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-dekabrda "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi qo'llanilishini kengaytirish, rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha 2019-2020 yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi, 2020-yil 7-sentabrda "O'zbek tili bayrami kuni" munosabati bilan tashkil etiladigan umumxalq bayrami tadbirlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish to'g'risida"gi majlis bayonida belgilangan tegishli vazifalar, O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 6-oktabrdagi 520-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Mumtoz sharq filologiyasi fakulteti O'zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti kafedrasidan o'tkazilgan "**O'zbek tili: kecha va buguni**" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan.

To'plam materiallaridan filologlar, sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, mustaqil tadqiqotchilar, magistr va talabalar, xalq ta'limi va umumta'lim maktablari o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.

(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o'zlari mas'uldirlar)

Tahrir hay'ati:

- | | |
|--------------------------|--|
| Komilov M. | - O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi rektori. |
| Islomov Z. | - O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, filologiya fanlari doktori, professor. |
| Lutfullayeva D. | - filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir). |
| Nosirova M. | - O'zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent. |
| Rustamiy S. | - filologiya fanlari doktori, dotsent. |
| Sayidiraximova N. | - filologiya fanlari nomzodi, dotsent. |
| Arifjanov Z. | - katta o'qituvchi. |
| Taqrizchilar: | |
| Hakimova M. | - filologiya fanlari doktori, dotsent. |
| Nosirova M. | - filologiya fanlari nomzodi, dotsent. |

To'plam O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi ilmiy, o'quv-uslubiy Kengashining **2021-yil 23-noyabrda 5-sonli** qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

O‘ZBEK TILIDA “VAQT” KONSEPTI VA UNING MAQOLLAR ORQALI VOQELANISHI

Hakimova Muhayyo Karimovna,

*Alsher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
filologiya fanlari doktori, dotsenti.*

Ma’lumki, so‘nggi yillarda jahon tilshunosligida konseptning o‘rganilishiga oid tadqiqotlar ko‘payib bormoqda. Bunday tadqiqotlarda odatda, “burch”, “iymon”, “halollik”, “adolat”, “vaqt” kabi abstrakt tushunchalarni ifodalovchi konseptlarga alohida e’tibor qaratiladi. Zero, barcha millat egalari uchun bevosita kuzatishda berilgan aniq voqeliklar haqidagi konseptlarda o‘ziga xosliklar kam kuzatiladi. Lekin bevosita kuzatishda berilmagan, faqat anglanadigan abstrakt mohiyatlarni ifodalovchi konseptlarning har bir millatda o‘ziga xos bo‘lishi ma’lum. SHu nuqtai nazardan “vaqt” konseptining o‘rganilishi ham ahamiyatli bo‘lib, uning lisoniy voqelanishi turli tillarda o‘xshash va farqli bo‘lishi tabiiy. Zero, barcha millatlarda vaqt ko‘rsatkichlari deyarli bir xil, unga nisbatan obrazli va qadriyatli munosabatlar asosida shakllangan konseptual tashkil etuvchilar farqli bo‘ladi.

Til o‘zida rang-barang olam manzarasini asliga mos ravishda in’ikos ettirishga harakat qilar ekan, lekin bu akslanish olam manzarasining ko‘zgudagi kabi aksi bo‘lmaydi. Olamning lisoniy manzarasi shu xalq olamning qaysi bo‘lagini ko‘rishni, nomlashni istasa, shunga asoslanadi. Qorong‘ulikda yorug‘lik tushgan joygina ko‘ringanidek, olam manzarasiga xalqning e’tibori tushgan qismigina nomlanadi. Masalan, o‘zbek tilida sutka qismlari **kun, tun, tong, ertalab, choshgoh, peshin, asr, oqshom, kecha** kabi qismlarga bo‘linadi. Sutka qismlari haqidagi konseptual qarashlarni namoz o‘qiladigan vaqt kabi tashkil etuvchilari ham tashkil etadi. Ingliz tilida “lunch” konsepti esa ovqatlanish vaqti asosida shakllangan. Kun chiqishdan ertalabgacha bo‘lgan vaqt esa *tong, azon, sahar, sahar-mardon, bomdod, subh, subhidam, mardon, tongotar* kabi leksemalar bilan nomlanadi va har biri anglatayotgan vaqt bir-biridan sezilarsiz bo‘lsa-da farq qiladi. Bu kichik vaqt qismining o‘zbek tilida bu kabi ko‘p nominatsiyaga egaligi o‘zbek xalqining erta tongdan barvaqt uyg‘onishi, qisqasi hayotning juda barvaqt boshlanishi bilan bog‘liq. Ushbu maqollar ham fikrimizni dalillaydi:

Erta turgan ish bitirar, Kech turgan ko‘p turtinar.

Erta turgan horimas.

Ertalabki vaqt — naqdgina baxt.

Ertalabki ish, Ko‘ngilni qilar xush.

O‘zbek xalqida vaqt oqar daryoga o‘xshatiladi. Vaqtga bo‘lgan konseptual qarashlarda insonning bu dunyodagi umri juda qisqa ekanligi, o‘tkinchi ekanligi, foni dunyoda esa abadiy yashashi, bu dunyodagi vaqtning qadriga etish, abadiy hayot uchun harakat qilish kerakligi kabi tushunchalar o‘z aksini topgan. G‘arb

madaniyatida *vaqt – pul, vaqt oltindan qimmat* kabi maqollar bor bo‘lsa, o‘zbek tilida *esa vaqt — g‘animat, o‘tsa — nadomat; vaqt tog‘ni emirar, suv toshni kemirar; vaqt — qozi; vaqtdan yutding — baxtdan yutding* kabi maqollar bor.

Shundan kelib chiqib bo‘lsa kerak, bu dunyodagi vaqtning, umrning qadriga etish, undan unumli foydalanishga undash o‘zbek faylasuf va shoirlari asarlarida, o‘zbek maqollarida an’anaga aylanib qolgan.

Bugungi kunda vaqt, sana, yosh, yil, umr kabi vaqt ma’nosiga ega tushunchalar qiyinchiliksiz anglanadi va ushbu tushunchalarni ifodalovchi birliklar tilda alohida tizimni shakllantiradi. Ushbu tushunchalardan biri vaqt konseptini tashkil etuvchi “yosh” tushunchasidir. Tilda, xususan, o‘zbek tilida “yosh” ma’nosini anglatuvchi leksik birliklarning shakllanishi uzoq tarixiy jarayonni bosib o‘tgan. Insonning umri, bu umrning davrlari nimaga asoslanib o‘lchangan, qanday qilib shaxs yoki jamiyat umrining davomiyligi o‘lchangan hamda ular qanday nomlangan degan savollar biz qo‘l telefonimizdagi sanalarga qaraganda, yoki ijtimoiy tarmoqda har kuni do‘stimizning tug‘ilgan kunlarini bizga eslatib turilganda har doim ham esimizga kelmaydi. Qadim ajdodlarimiz vaqt sarhisobini aniq kuzatish mumkin bo‘lgan tabiat hodisalari asosida belgilashgan. Masalan, kun (quyosh) orqali sutkaning yorug‘ qismi nomlangan. Ularda avval sutka tushunchasi bo‘lmagan, *ikki kundan keyin kelaman, uch kunlik yo‘l* kabi qo‘llanishlar ushbu qarashning hozirgacha bo‘lgan ta’siridir. Oy va uning turli ko‘rinishlari ham vaqt ulchovi birligi bo‘lganligi bizga ma’lum.

Ayni davrda o‘zbek tilida inson umrining tug‘ilgandan boshlab o‘tkazgan vaqti, bu davrdagi har bir yil “yosh” so‘zi bilan nomlanadi. Ma’lumki, o‘zbek tilining izohli lug‘atida *yosh* omonim so‘zlar sifatida keltiriladi. Unda “ko‘z yoshi” va “vaqt, davr” ma’nosidagi ikkita so‘z shakldosh sifatida berilgan.

Turkiy xalqlarning qadimdan chorvachilik bilan shug‘ullangani ma’lum. Ular yil hisobini bahor oyi, ya’ni barra o‘tlar o‘sgan paytdan boshlashgan. Zero, tabiatda chorvani o‘tlatish mumkin bo‘lgan vaqtdan, ya’ni qir, adir, kengliklarga chorva bilan ko‘chish vaqti yil sarhisobi uchun asos bo‘lgan. Bu o‘tlar, maysalar sabza urgan payt bo‘lgan.

Fransuz olimi Lui Bazening “Konsepsiya vozrasta u drevnix tyurkskix narodov” Ya’ni qadimgi turkiy xalqlarda yosh konsepsiyasi” nomli maqolasi 1986 yilda “Zarubejnaya tyurkologiya” jurnalida e’lon qilinadi. Ushbu maqolada xitoyda 557-581 yillrada xukm surgan “Chu dinastiyasining solnomasi” dan quyidagi parcha keltiriladi: “Ular (ya’ni Mo‘g‘uliston hududidagi turkiy xalqlar yillar almashinuvini va vaqtning sarhisobini yashil bo‘lgan o‘tlar orqali aniqlashardi” [1, 361-362]. Bu davrda turkiy xalqlar, aniqrog‘i Mo‘g‘uliston hududagi turkiy halqlar “Yash” so‘zi bilan barra o‘tlarni nomlashgan. Keyinchilik o‘tlar ko‘m-ko‘k bo‘lgan vaqtning yil sarhisobi uchun qo‘llashgan, ya’ni ushbu vaqtning va uning yana qaytirilishigacha bo‘lgan muddatni ham “yash” deb nomlashgan. Bahor oyida tug‘ilgan qo‘zichoq uchun shu bahor birinchi bahori, keyingi yil 2-bahori, 3-yil 3-bahori hisoblangan. Shunda 2 yil yashagan qo‘zichoq 3 bahorni ko‘rga n bo‘lgan. Ya’ni u 3 yosh bo‘lgan.

Yashil o‘t uchun qo‘llangan “yash” so‘zi o‘tning rangiga bog‘liq holda yashil (rang) so‘zining shakllanishiga asos bo‘lgan bo‘lsa, o‘tning sersuvligi asosida

koʻzning suvi maʼnosidagi yosh, va vaqt maʼnosini beruvchi yosh kabi 2 ta yoʻnalishda maʼno taraqqiy etgan. Bu *yosh* soʻzi chuvash tilidan boshqa koʻplab turkiy tillarda har xil fonetik oʻzgarishlar bilan mavjud. Masalan, qirgʻiz va oltoy tilida *jash* deyiladi. Bugungi kunda *yosh* soʻzining koʻz yoshidagi va inson yoshidagi maʼnolar taraqqiyoti omonimiyagacha etib borgan.

Turkiy xalqlar keyinroq xitoylarning hayvon nomlariga asoslangan muchal kalendari, Arablarning hijriy kalendari, Grigoryan kalendari kabi oʻlchov birliklaridan foydalangan boʻlsa-da, lekin baribir hozirgacha yilning boshi bahorga toʻgʻri kelishi konseptual ahamiyat kasb etadi. Buni ushbu maqollar orqali ham koʻrish mumkin: *Avval — bahor, oxir — xazon. Yilning yaxshi kelishi bahordan maʼlum. Kun gʻamini sahar e, Yil gʻamini bahor e.* Demak, Navroʻz soʻzi fors-tojik tilidan oʻzlashgan boʻlsa-da, bu bayramning asl mohiyati xalqimizning uzoq yillik tarixini oʻzida aks ettiradi.

Oʻzbek tilida “yosh” konsepti insoning vaqt bilan bogʻliq jismoniy va sotsial rivojlanish darajasini bildiradi. Bu rivojlanish insonning qancha umr koʻriishi bilan belgilanishi maʼlum. Tilimizda boshqa koʻpgina tillar qatori bolalik, oʻsmirlik, etuklik (oʻrta yosh), qarilik kabi “yosh” konseptini tashkil etuvchi birliklar mavjud.

Ushbu konseptlarning tushunchaviy, qadriyatga asoslangan va obrazli tuzilmalari bor. Yosh konseptining tushunchaviy tashkil etuvchisining turli tillarda deyarli bir xil boʻlishi haqida yuqorida aytib oʻtgan edik. Masalan, bolalik konseptini barcha tillarda yoshi kichiklik, etarli hayotiy koʻnikma va malakaga ega boʻlmaslik, yoqimtoylik kabilar tashkil etadi. Lekin ayrim oʻrinlarda “yosh” konseptining tushunchaviy tuzilmasida chegaralarning bir xil emasligi til egalarining hayot tarzidan kelib chiqib farqlanishi mumkin. Masalan, oʻzbek millatida erta turmush qurish natijasida yosh darajasining chegarasi ayrim millatlarga nisbatan farqli. Bizda turmush qurish uchun 40 yosh kattalik qilsa, gʻarb davlatlarida meʼyor sanaladi. Quyidagi sheʼr ushbu fikrimizni isbotlaydi:

Izlay-izlay horib boʻldim, sensiz yolgʻiz gʻarib boʻldim.

Endi bosgan izlaringni toʻrt tomondan topolmasman.

Toliqib ham tolib boʻldim, qirqqa kirmay qarib boʻldim.

Layli nahor seni izlab er-osmondan topolmasman.

Yoki *Ayolning oʻttizga kirgani — oʻtin boʻlgani* kabi maqollar bor.

Ingliz tilida esa aksincha maʼno buruvchi “*Life begins at forty*” (Hayot 40 yoshda boshlanadi) kabi maqollar mavjud. Bu misollardan ham koʻrish mumkinki, turli tillarda yosh chegarasi masalasi farqli boʻlishi mumkin.

Yosh konseptining qadriyatlarga asoslangan tashkil etuvchilari har bir tilda oʻziga xos boʻladi. Biz bu oʻrinda “qarilik” konsepti masalasiga toʻxtalib oʻtamiz. Maʼlumki, konseptning tildagi voqelanishi koʻproq frazemalar, maqol va matallar orqali tahlil qilinadi. Biz ham shu usuldan foydalanamiz.

Oʻzbek tilida qarilikka alohida kadriyat sifatida qaraladi. Bu yoshga etish niyati bildiriladi, qariyalarga hurmat koʻrsatish oʻzbek milliy madaniyatiga xosdir. Qarilikka aksiologik qarash quyidagi maqollarda aks etadi:

Qarisi bor uyning parisi bor;

Bola — shirinlikning adoyi, Qariya — shirin so‘zning gadoyi;

Yosh kelsa — ishga, Qari kelsa — oshga;

Yoshning hurmati — qarz, Qarining hurmati — farz.

O‘zbek tilida qariyalarning donishmandligi quyidagi maqollarda aks etadi:

Yoshlikning eli kuchli, Keksalikning — aqli;

Qarilikni donolik bezar, YOshlikni — kamtarlik.

Qariyalarning ko‘p hayotiy tajribaga egaligi quyidagi maqollarda aks etadi:

Qari bor uyning zari bor;

Qarisi bor uyning parisi bor, Parisi bor uyning barisi bor;

Qari uyning farishtasi, Saranjomi, sarishtasi;

Qarida xislat ko‘p.

Qariyalarning e‘tiborga loyiq ekanligi, ularga munosib hurmat ko‘rsatish masalasi quyidagi maqollarda o‘z aksini topgan:

Qarilarni qarg‘atma, Yosh joningni og‘ritma;

Qarini kaftda saqla, O‘ligini hafta saqla.

Ingliz lingvomadaniyatida esa qarilikka qadriyat sifatida qarash bizdagidek kuchli bo‘lmasa ham, u mavjud. Masalan, quyidagi kabi maqollarda ko‘rish mumkin: *yoshi kattaroq - dono; Yoshning mohiyati aqlidir; Hech kim keksa odam kabi sevmaydi; Daraxt ekish uchun faqat keksa odamning sabri bor.*

Qayd etish kerakki, xalqning mentalitetidan kelib chiqib, ingliz tilida keksalikka qadriyat sifatida qarash o‘zbeklarnikidan biroz sustroq, nazarimizda. Buni qarilikka bo‘lgan ijobiy va salbiy konnotatsiyali maqollar orqali ko‘rish mumkin. T.A.Znamenskaya nomli rus tadqiqotchisining ilmiy ishida 83 ta ingliz tilidagi keksalikka oid maqollar to‘plangan va ularning 51 tasi salbiy va 26 tasi esa ijobiy ma‘noli ekanligi qayd qilingan.

Qarilikka nisbatan ingliz tilida jismoniy zaiflik nuqtai nazaridan baholash kuchli: *Qariyalar faqat kasalxonalarda yurishadi; Yorilgan qo‘ng‘iroq hech qachon yaxshi eshitilmaydi; Qarilik - bu sinov bosqichi; Qarilik xursandchilik emas; Qarilik baraka emas.* Xuddi shu kabi maqolni rus tilida ham uchratish mumkin: *starost ne radost kabi.*

Fransuz lingvomadaniyatidagi keksalikka katta bir tajriba egasi sifatidaga qarash bizda uchramaydi: *Yillar kitoblardan ko‘proq narsani biladi. Eng yaxshi sharob eski idishdan chiqadi. Qadimgi skripkada juda yaxshi musiqa yangragan.*

Yapon lingvomadaniyatida ham qarilikka o‘ziga xos qadriyat sifatida qaraladi. Buni ularning quyidagi maqollari orqali ko‘rish mumkin: *Qari odam bilan otangdek gaplash, eski (Qari) maqol aldamaydi, qadim (qari) daryo qurimaydi.*

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, “vaqt” konsepti juda keng masala bo‘lib, u monografik o‘rganilishi mumkin bo‘lgan mavzu. Bu kabi tadqiqotlar o‘zbek xalqining vaqt haqidagi qarashlari, tushunchalari, obrazli taffakuri, bu boradagi xulosa va tajribalarini milliy ruh va til orqali o‘ziga xos ekanligini ko‘rsatadi.

1. Базен Л. Концепция возраста у древних тюркских народов // Зарубежная тюркология. Вып. I. Древние тюркские языки и литературы. -М.: 1986. С. 361-378.
2. Ҳақимова М. Ўзбек тилида вақт маъноли луғавий бирликлар ва уларнинг матн шакллантириш имкониятлари. Филол. фан.ном.дисс. автореф. -Фарғона, 2004.

ТИЛШУНОСЛИҚДА ДИАЛОГ ВА КВАЗИДИАЛОГ МАСАЛАСИ

Давлатова Раъно Ҳайдаровна,
*Навоий давлат педагогика институти
филология фанлари доктори (DSc.).*

Маълумки, *диалог* (юнонча: διάλογος — "суҳбат") [1] икки ёки ундан ортиқ киши ўртасида оғзаки ёки ёзма баёнотлар (репликалар, саволлар ва жавоблар) алмашинувининг адабий ёки саҳналаштирилган шакли бўлиб, улар ўртасидаги оғзаки, ёзма ёки бошқа усулларда фикр алмашишни таъминловчи алоқа-аралашувнинг ўзига хос шакли сифатида тавсифланади.

Диалог коммуникациянинг икки ҳамкори томонидан яратиладиган матн бўлиб, бунда улардан бири, яъни адресант бошлаган мавзу асосида олиб бориладиган, адресат эса ушбу дастурда фаол иштирок этадиган мулоқот тури саналади. Мулоқотнинг бу турида адресант ва адресат ўрни тез-тез алмашишиб туради.

Анъанавий тилшуносликда одатда нутқнинг бу шакли монологга қиёсан фарқланади. Диалогда мулоқот иштирокчилари саналган адресант ва адресат – ҳар иккаласининг фаоллиги талаб қилинса, монологда адресант фаоллиги етакчилик қилади. М.Бахтин ўзининг фалсафий қарашлари асосида монологни шундай изоҳлайди: "...ҳеч кимга йўналтирилмаган ва жавоб талаб қилинмайдиган нутқ туридир» [2].

Кўринадики, ҳар қандай диалогнинг асосий фарқли хусусиятини саволларга жавоб қайтарадиган адресатнинг мавжудлиги сифатида белгилаш мумкин.

Диалогни таснифлашда нутқ иштирокчиларидан ҳар бирининг вазияти, диалогик мулоқотдаги иштирок даражаси инобатга олинади. Жаҳон тилшунослигида анъанавий ва замонавий тадқиқотлар асосида диалог турли жиҳатидан таснифланади: 1) шаклий тузилиши ва мазмунига кўра (Г.Ипсен, М.К. Бородулина ва Н.М. Минина); [3] 2) мулоқотда иштирокчиларнинг мавзунини ривожлантиришга қўшган ҳиссаси ва мазмуний алоқадорликнинг ўрнатилишига кўра, диалогик бирликларнинг композицион-нутқий шаклларига кўра (М.Я. Блох, С.М. Поляков); [4] 3) аниқ коммуникатив актда нутқ иштирокчиларининг роли ҳисобга олинишига кўра (С.Л. Круглова); [5] 5) анъанавий алоқа турига кўра (Л.А. Азнабаева); [6] 6) диалог иштирокчиларининг сони ва уларнинг коммуникатив акт жараёнидаги фаол ва нофаоллигига кўра (В.Н. Бабаян); [7] 7) нутқ иштирокчиларининг диалогни